

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

NISHONBEKOVA JADIRA O'RINBOY QIZI

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA MUSIQIY-ESTETIK
KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02- Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (musiq)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Nishonbekova Jadira O'rinboy qizi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida musiqiy-estetik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish.....3

Нишонбекова Жадира Уринбаевна

Совершенствование методики развития музыкально-эстетической компетенции у учащихся начальных классов.....21

Nishonbekova Jadira Urinboyevna

Improvement of the methodology of developing musical-aesthetic competence in primary school students.....41

E'LON QILINGAN ISHLAR RO'YXATI

СПИСОК ОПУБЛИКОВАННЫХ РАБОТ

LIST OF PUBLISHED WORKS.....45

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

NISHONBEKOVA JADIRA O'RINBOY QIZI

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA MUSIQIY-ESTETIK
KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02- Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (musiqqa)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Ped5084 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) veb-sahifaning www.tdpu.uz hamda «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida www.ziynet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Isyanov Ravil Gennadyevich

pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Panjiyev Qurboniyoz

pedagogika fanlari doktori, professor

Kiyamov Nishon Sadikovich

pedagogika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Fargona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSs.03/30.01.2020.Ped.26.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «__» ____ soat ____dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27-uy. Tel.: (99871) 276-79-11; faks: (99871) 276-80-86; ye-mail: tdpu_kengash@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27-uy. Tel.: (99871) 276-75-87; faks: (99871) 276-80-86.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «__» ____ kuni tarqatildi.

(2025-yil «__» ____ da ____ - raqamli reestr bayonnomasi).

N.A.Muslimov

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor

D.K.Yakubjanova

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, p.f.d., professor

Z.N.Mamarajabova

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, p.f.d., professor

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarda kichik maktab yoshidagi o'quvchilar ta'lim-tarbiyasi borasida olib borilayotgan izlanishlar Rossiya, Singapur, Janubiy Koreya, Finlyandiya, AQSH, Germaniya o'quvchilarining savodxonligini, ma'naviy kamolotini, dunyoqarashini rivojlantirish metodikalari amaliotga tatbiq etilmoqda. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida musiqiy savodxonligini rivojlantirish, ta'lim muhitining hissiy ta'sir darajasini oshirish estetik tarbiya berish, o'quvchilarning cholg'uchilik ko'nikmalarini rivojlantirish va musiqiy qobiliyatlarini takomillashtirish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida zamonaviy va xalq og'zaki ijodi janrlari, bolalar qo'shiqlari va aytimlari ichki motivatsiya, diqqatni jamlash va ijodkorlikni rivojlantirishni o'rganish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar sirasiga kiruvchi musiqani badiiy his qilish tuyg'usini rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ta'lim sohasida, musiqani badiiy his etish, ijodiy amaliyot va intilish go'zallikni chinakam qadrlash, musiqa tarbiyasi g'oyaviy-siyosiy jihatdan xalqning ishtimoiylashishiga xizmatini rivojlantirish, musiqa tarbiyasi metodikasini takomillashtirish xalqning milliy musiqa madaniyati, tili va madaniy an'analarini qadrlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda so'ngi yillarda jamiyatimizning iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy va madaniy jihatdan rivojlantirish musiqiy meroslardan to'laqonli foydalanish, musiqa san'atining imkoniyatlaridan yangi avlodni tarbiyalash me'yoriy asoslari yaratilmoqda. «Ijtimoiy sohani rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, ta'lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san'at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish» ustuvor vazifalar etib belgilangan. Natijada o'quvchilarning musiqiy estetik kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari kengayadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son, 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" PF-4947-son, 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5847-son Farmonlari, 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-2909-son, 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775 son, 2020-yil 27-fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4623-son qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini

shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustivor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikamizda musiqiy pedagogik metodikani takomillashtirish, boshlang'ich sinf o'quvchilarida musiqiy estetik kompetensiyalarini rivojlantirish N.R.Yusunbekova, Sh.R.Maxkamova, D.M.Toshpulatova, B.Mustafaev, Sh.T.Boltaeva, M.U.Badalova, N.R.Xamraevalar tomonidan tadqiq etilgan.

MDH mamlakatlaridan V.I.Zagvyazinskiy, Ye.F.Zeer, A.I.Zimnyaya, V.V.Kuznetsov, A.I.Prigojin, S.D.Reznik, V.A.Slastenin, A.V.Xutorskoy, Yu.B.Boreev, I.D.Gratsipova, M.F.Ovsyannikovalar musiqiy pedagogika yo'nalishini rivojlantirish borasida izlanishlar olib borishgan.

T.Kollen, R.Biker-Vayt, D.Zubeyde, B.Chrissi Ioannou, M.Morris, N.Goldman, E.Bezani Chloelar teatr vositasida maktab o'quvchilarining badiiy, estetik va axloqiy rivojlanishining konseptual asoslarini o'rganish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot rejasining «Pedagogik yo'nalishlar va mutaxassisliklar bo'yicha ilg'or pedagogik texnologiyalarini joriy etish, pedagog kadrlarni sifatli tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, elektron-ta'lim resurslarini yaratish va takomillashtirish, o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogika, multimedia va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish» nomli ustivor yo'nalish doirasida bajarilgan (2020-2024 yy.).

Tadqiqotning maqsadi boshlang'ich sinf o'quvchilarida musiqiy-estetik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilar:

o'quvchilarda musiqiy-estetik kompetensiyalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlarini aniqlash;

boshlang'ich sinf o'quvchilarining musiqiy-estetik kompetensiyalarini rivojlantirish modelini takomillashtirish;

boshlang'ich sinf o'quvchilarida musiqiy-estetik kompetensiyalarini rivojlantirishning usul, shakl, metod va vositalarini aniqlashtirish;

o'quvchilarda musiqiy-estetik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi pedagogik va psixologik tashhishlash, improvizatsion fikrlashni ijodiy rivojlantirish, musiqani estetik idrok etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obekti sifatida boshlang'ich sinf o'quvchilarida musiqiy estetik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish jarayoni bo'lib, Olmaliq shahridagi 17-sonli umumta'lim o'rta maktabdan, Yashnobod tumanidagi 155-sonli umumta'lim o'rta maktabdan, Jizzax viloyati Arnasoy tumanidagi 8-sonli umumta'lim o'rta maktablaridan, jami 482 nafar respondentlar tadqiqotga jalb qilindi.

Tadqiqot predmetini boshlang'ich sinf o'quvchilarida musiqiy-estetik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot mavzusiga oid pedagogik, psixologik adabiyotlarni qiyosiy o'rganish va tahlil qilish, davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari va musiqa

darsliklarni o'rganish, pedagogik tahlil, kuzatish, anketa, so'rovnoma, pedagogik eksperiment, matematik-statistik qayta ishlash metodlaridan foydalaniladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi.

boshlang'ich sinf o'quvchilarida musiqiy estetik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish didaktik imkoniyatlari ta'lim bo'shliqlarini mustaqil to'ldirish, emotsional, obrazli musiqiy tushunchalarini bilish, musiqiy-estetik kompetensiyalarni hamda loyihaviy prognostik rivojlantiruvchi musiqiy tushunchalarni mazmunan-hissiy interpretatsiya qilish asosida aniqlangan;

o'quvchilarda musiqiy estetik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi pedagogik va psixologik tashhishlash, improvizatsion fikrlashni ijodiy rivojlantirish, musiqani idrok etish, harakat va tovush uyg'unligini ta'minlash hamda hissiy ekspressivlikni sezish qobiliyatini refleksivligini adaptiv ta'minlash asosida takomillashtirilgan;

boshlang'ich sinf o'quvchilarida musiqiy-estetik kompetensiyalarini rivojlantirish modeli o'z-o'zini baholay olish ko'rsatkichlariga oid loyihaviy prognostik usullar va emotsional-obrazli ifodaviy-ritmik gimnastik mashqlar ketma-ketligini belgilash hamda majoziy assotsiatsiyalarni mazmunan hissiy integratsiyalash asosida takomillashtirilgan;

umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarida musiqiy-estetik kompetensiyalarni rivojlantirish samaradorligi musiqiy tushunchalarni interpretatsiya qilish, o'zini o'zi baholash hamda ta'lim berish tamoyillarining tadrijiy dinamikligini bosqichma-bosqich ta'minlash asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Tadqiqotda to'plangan materiallar va natijalardan musiqiy-estetik kompetenlikning pedagogik diagnostikasi tizimida foydalanish, unda sinovdan o'tgan uslubiy vositalar o'quvchilarda musiqiy-estetik kompetenlikni rivojlantirish sohasida amalga oshiriladigan amaliy ishda qo'llanishi, oliy ta'lim bakalavriyat o'quv rejasidagi metodik fanlarda va umumta'lim maktabi musiqa madaniyati fanlaridan hamda musiqiy ta'lim yo'nalishi o'qituvchilariga malakasini oshirish va qayta tayyorlash kurslari tinglovchilari uchun mo'ljallangan nazariy va amaliy mashg'ulotlar o'tkazishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda to'plangan ma'lumotlarning ishonchliligi, avvalo tadqiqot obektining maqsadga mos tanlanganligi, ilmiy tekshirish va treninglarda qatnashgan respondentlarning yetarlicha reprezentativligi, tanlagan metodikalarning validligi va ishonchliligi, olingan empirik miqdorlar matematik-statistikaning ishonchli usullari yordamida tahlil qilinganligi, bunda zamonaviy elektron dasturiy vositalar qo'llangani, izlanishlar aniq va reja bosqichlarda bir-birini to'ldiruvchi usullar yordamida amalga oshirilganligi bilan belgilanadi. Shuningdek, tadqiqot davomida shakllantirilgan ishlab chiqilgan xulosa taklif va tavsiyalarning bir vaqtda turli yo'nalishlarda amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati boshlang'ich sinf o'quvchilarining musiqiy estetik kompetenligini milliy qadriyatlar asosida rivojlantirish metodlarini takomillashtirish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati boshlang'ich sinf o'quvchilarining musiqiy estetik kompetenligini rivojlantirish muammolarini tahlil qilish shakl, metod

va vositalarini takomillashtirish, boshlang'ich sinf o'quvchilarining musiqiy estetik kompetensiyalarini shakllantirish bo'yicha o'quv rejaları va dasturlarida qo'llanishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida musiqiy-estetik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bo'yicha olingan natijalar asosida:

boshlang'ich sinf o'quvchilarida musiqiy estetik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish didaktik imkoniyatlari ta'lim bo'shliqlarini mustaqil to'ldirish, emotsional, obrazli musiqiy tushunchalarini bilish, musiqiy-estetik kompetensiyalarni hamda loyihaviy prognostik rivojlantiruvchi musiqiy tushunchalarni mazmunan-hissiy interpretatsiya qilish asosida aniqlashga oid tavsiyalar "Aqilli bog'cha" konsepsiyasi uchun bolalarni kasbga erkin qiziqishlarini shakllantirishning dasturiy taminotini yaratish" nomli loyiha doirasida belgilangan vaziflar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan. (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024- yil 11- sentyabrdagi 11-05-4912/04 son malumotnomasi). Natijada boshlang'ich sinf o'quvchilarini musiqiy-estetik kompetensiyalarini takomillashtirildi;

o'quvchilarda musiqiy estetik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi pedagogik va psixologik tashhishlash, improvizatsion fikrlashni ijodiy rivojlantirish, musiqani idrok etish, harakat va tovush uyg'unligini ta'minlash hamda hissiy ekspressivlikni sezish qobiliyatini refleksivligini adaptiv ta'minlash asosida takomillashtirish buyicha tavsiyalar "Aqilli bog'cha" konsepsiyasi uchun bolalarni kasbga erkin qiziqishlarini shakllantirishning dasturiy taminotini yaratish" nomli loyiha doirasida belgilangan vaziflar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan. (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024- yil 11- sentyabrdagi 11-05-4912/04 son malumotnomasi). Natijada boshlang'ich sinf o'quvchilarini musiqiy-estetik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi rivojlantirilgan;

boshlang'ich sinf o'quvchilarida musiqiy-estetik kompetensiyalarini rivojlantirish modeli o'z-o'zini baholay olish ko'rsatkichlariga oid loyihaviy prognostik usullar va emotsional, obrazli ifodaviy- ritmik gimnastik mashqlar ketma-ketligini belgilash hamda majoziy assotsiatsiyalarni mazmunan hissiy integratsiyalash asosida takomillashtirish buyicha tavsiyalar "Aqilli bog'cha" konsepsiyasi uchun bolalarni kasbga erkin qiziqishlarini shakllantirishning dasturiy taminotini yaratish" nomli loyiha doirasida belgilangan vaziflar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan. (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024- yil 11- sentyabrdagi 11-05-4912/04 son malumotnomasi). Natijada boshlang'ich sinf o'quvchilarini musiqiy-estetik kompetensiyalarini rivojlantirish takomillashtirilgan;

umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarida musiqiy-estetik kompetensiyalarni rivojlantirish samaradorligi musiqiy tushunchalarni interpretatsiya qilish, o'zini o'zi baholash hamda ta'lim berish tamoyillarining tadrijiy dinamikligini bosqichma-bosqich ta'minlash asosida takomillashtirish buyicha tavsiyalar "Aqilli bog'cha" konsepsiyasi uchun bolalarni kasbga erkin qiziqishlarini shakllantirishning dasturiy taminotini yaratish" nomli loyiha doirasida belgilangan vaziflar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan. (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024- yil 11- sentyabrdagi 11-05-4912/04 son malumotnomasi). Natijada boshlang'ich sinf o'quvchilarini musiqiy-estetik kompetensiyalarini rivojlantirilgan modeli

takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza shaklida taqdim etilib, aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ish nashr etilgan bo'lib, shundan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta ilmiy maqola, jumladan, 3 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, ishning umumiy hajmi 138 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, dissertatsiya mavzusi bo'yicha respublika va xorijiy ilmiy-tadqiqot ishlari sharhi va muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, obekti va predmeti aniqlangan, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi haqida ma'lumotlar kiritilgan.

Dissertatsiyaning «**Boshlang'ich sinf o'quvchilarining musiqiy-estetik kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida musiqiy estetik kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari, musiqiy estetik kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyalari milliy qadriyatlar asosida musiqiy-estetik kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonlari keltirilgan.

Barchamizga ma'lumki, komil insonni shakllantirishning poydevori – bu boshlang'ich ta'limdir. Sababi, hali ongi to'liq shakllanmagan, hayot va jamiyat tushunchalaridan ancha yiroq bo'lgan, oqu-qorani, yaxshi-yomonni farqini bilmaydigan, dunyoni faqat yaxshilikdan iborat deb biluvchi murg'ak qalbli insonlar ilk bora ilmlar maskani - maktabga qadam tashlaganda ular uchun butunlay notanish bo'lgan olamga duch keladi. Ushbu boshlang'ich sinf davrida olgan bilimlari, ta'lim-tarbiyalari, ularning tanlangan yo'llari kelajagini belgilaydi. Kelajagimizning porloq bo'lishi, yurtimizga xizmat qiluvchi, ajdodlarimizga munosib voris bo'lish ularning barchasi boshlang'ich ta'limda shakllanadi. Shu sababli, uzoqni ko'zlagan holda bizning O'zbekistonda ham umumiy ta'lim tizimiga, ayniqsa, boshlang'ich ta'lim tizimiga juda katta e'tibor qaratilmoqda.

Jumladan, o'quvchi yoshlarni estetik tarbiyalash masalalari Ye.V.Kvyatkovskiy, B.T.Lixachev, V.A.Razumniy kabilarining ishlarida o'z aksini topgan. Shuningdek, o'smirlarda estetikaga oid qiziqishini shakllantirish, ularni estetik ruhda tarbiyalash muammolari S.S.Annamurotova, S.S.Bulatov, S.X.Fayzulina, R.Hasanov, A.Q.Munavarov, R.Mavlonova, H.Nurmatov, D. Omonullaev va boshqa pedagog olimlarning tadqiqotlarida ham o'z aksini topgan. Mavzuni yoritishda buyuk Sharq mutaffakir–olim–pedagoglarimiz Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Mirzo

Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Boburlarning estetikaga pedagogik qarashlari, shuningdek hozirgi o‘zbekistonlik pedagoglarimizning muammoni hal etish bo‘yicha olib borayotgan ilmiy izlanishlaridan iqtiboslar keltirilgan.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning umummadaniy va ahloqiy ko‘nikmalari, dastlabki savodxonlik malakalari va albatta kichik yoshdagi o‘quvchilarning estetik didlarini shakllantirish lozim. Sababi, ayni paytda tabiat, atrof-muhitning hozirgi holati o‘simlik, hayvonot dunyosining yo‘qolib borayotgan go‘zalliklarini saqlab qolish bo‘yicha muammolar paydo bo‘ldi. Bu ham o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma‘naviy-estetik tarbiyalash zimmasiga yuklatilgan. O‘quvchilarga tabiat vositalari bilan ekologiya va unga ma‘naviy-ahloqiy munosabatda bo‘lish orqali estetik tarbiya berish favqulotda dolzarb muammo bo‘lib, u o‘zining muayan ilmiy-pedagogik yechimini taqazo etmoqda.

Bizga ma‘lumki, ta‘lim berish orqali tarbiya va tarbiyalash orqali ta‘lim beriladi. Ya‘ni, ta‘lim berishning asosiy qismi o‘quvchilarni har tomonlama komillikka yetaklashdir.

Bu haqda A.Q.Munavvarov shunday deydi: «O‘sib kelayotgan yosh avlodni zamonamiz ruhiga mos, barkamol inson bo‘lishlari uchun, tarbiyaning tarkibiy qismlari - axloqiy, aqliy, jismoniy, mehnat, estetik tarbiyasiga yangicha nigoh tashlash va o‘sha ta‘limni amalga oshirish yo‘llarini ishlab chiqmoq lozim» deb ta‘kidlaydi.

Estetika lotincha «Estetikos», ya‘ni «his etaman» degan ma‘noni bildiradi. Aqliy, axloqiy, mehnat, jismoniy va boshqa tarbiyalarni estetik his-tuyg‘usiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Estetik tarbiyaning maqsadi o‘quvchilarni tabiat, jamiyat va san‘atdagi go‘zalliklarni idrok etishga, ularni to‘g‘ri tushunib yetishga, qadriga yetishga, hayotga qayta go‘zallik olib kira olishga o‘rgatishdan iboratdir. Maktabda tasviriy san‘at, musiqa, adabiyot, tabiatshunoslik darslari estetik tarbiyaning asosiy vositalari hisoblanadi. Biz nafaqat narsa va hodisalar, balki insoniy xulq-atvor, fazilatlarni ham estetik jihatdan baholashimiz mumkin. Insoniy go‘zallik aql, burch, iymon, insof, kamtarlik, latofat, lafz, mehmondo‘stlik, mehr, muloyimlik, poklik, yaxshilik va hokazo sifatlarni o‘zida namoyon qiladi. Estetik tarbiya go‘zallikdan zavqlanishga, xunuklikdan nafratlanishga, kulgilikdan kulishga, fojealikdan istirobga tushishga o‘rgatadi.

Aynan estetik tarbiyani tanlashning asosiy sababi go‘zallik, ezgulik dunyoni poklaydi. Estetik tarbiyaning ana shunday ulug‘ ekanligini nazarda tutgan holda pedagoglarimiz unga o‘z dunyoqarashlaridan kelib chiqib shunday ta‘rif beradilar: «Estetik tarbiya ancha keng ma‘noga ega bo‘lib, shaxsni tabiat va jamiyatdagi go‘zalliklarni ideal nuqtai nazardan idrok etishga o‘rgatadi. Shuningdek, estetik faoliyatga, voqelikni go‘zallik qonun-qoidalari asosida o‘rgatishga qobiliyatli shaxsni tarbiyalaydi».

Estetik tarbiya (estetik tarbiya) - bu o‘quvchilarni voqelikdagi, san‘atdagi, tabiatdagi, kishilarning ijtimoiy va mehnat munosabatlaridagi, turmushdagi go‘zalliklarni idrok qilish hamda to‘g‘ri tushunishga o‘rgatish, ularning badiiy didini o‘stirish, ularda go‘zallikka muhabbat uyg‘otish va hayotga go‘zallik olib kirish qobiliyatlarini tarbiyalashdir.

Ta‘lim-tarbiyaning boshqa shakllari kabi estetik tarbiya ham o‘zida diqqat e‘tiborni yakka odamda va ijtimoiy guruhda qaratib, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni qaror toptirishga xizmat qiladi.

M.Nabixonov estetik tarbiyaga quyidagicha ta'rif beradi: «Estetik tarbiya deganda go'zallikni his qilish, go'zallikni yaratish, orastalik va yosh avlodni yuqori didli qilib tarbiyalash tushuniladi».

Yuqorida keltirilgan pedagoglarimiz ta'rifidan shu ma'no anglanadiki, estetik tarbiya insonni komillik, barkamollik darajasiga olib chiquvchi eng muhim omil ekan.

Avvalambor estetik tarbiyaning maqsadi nima? Uning vazifalari nimalardan iborat, nima uchun pedagoglarimiz estetik tarbiyaga katta e'tibor qaratmoqda? Ta'lim tarbiyaning boshqa shakllari kabi estetik tarbiya ham umuminsoniy va milliy qadriyatlarimizni qaror toptirishga xizmat qiladi. Tarbiya inson ongiga, his-tuyg'ulariga, tasavvuriga, e'tiqodiga, dunyoqarashiga, xatti-harakatlariga, xulq-atvoriga ta'sir o'tkazishini o'z oldiga maqsad va vazifa qilib qo'yadi. Estetik tarbiya ham ana shu umumiy maqsadlarni o'zida jamlagan holda estetik ongni shakllantirish maqsadi va vazifasi ko'proq yosh avlodga taalluqlidir.

Estetik tarbiya, eng avvalo, odamlarning didlarini shakllantirishga katta ta'sir o'tkazadi. Bu haqda butun jahon pedagoglari ham fikrlar bayon etmoqda. Hattoki, internet ma'lumotlarida ham estetik tarbiyaning muhim ahamiyatlari keltirilgan. T. Mahmudov estetik tarbiyaning kishilarni barkamol qilib tarbiyalashdagi ahamiyatiga yuqori baho beradi, u o'zining «Estetik did» haqidagi kitobida «Didi past kishi hayotda passiv bo'ladi. Uning tuyg'ulari haqiqiy go'zallik izlamaydi, siyqa go'zallik bilan qanoatlanadi, didi qashshoq bo'ladi. Go'zallik tuyg'usi shu qadar qudratli tuyg'u-ki, u insonning did-salohiyatini o'stirishni ko'zda tutadi».

Estetik tarbiyaning maqsadi va vazifasi o'quvchilarni tabiat va jamiyatdagi go'zalliklarni idrok qilish, uni to'g'ri tushunish va fahmlash, qadriga yetish va shu asnoda o'z shaxsiy hayotining go'zal tomonini ko'ra bilishga, go'zal bo'lish uchun kurashishga o'rgatishdan iboratdir.

Estetik tarbiya ahloqiy qiyofa, ijobiy xulq-atvor normalarini tarkib toptirishga, ularning qobiliyatlarini taraqqiy ettirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Mana shunday ezguliklarga olib boruvchi estetik tarbiyada insoniyat ongida, ularning hayotida tarkib toptirish uchun avvalo ularni kichik yoshdanoq mana shunday estetik ruhda tarbiyalash, estetikaning boshlang'ich elementlarini berib borish, ularning ongida go'zallik, chiroyli xislat, chiroyli fazilat kabi ajoyib tuyg'ularni singdirib borish lozim.

Kichik yoshdagi o'quvchilarni estetik ruhda tarbiyalash avvalombor, boshlang'ich sinf o'qituvchilariga katta ma'suliyat yuklaydi. Boshlang'ich ta'lim umumiy o'rta ta'lim olish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim va ko'nikma asoslarini shakllantirishga qaratilgandir. Ayniqsa, shu kichik yoshdagi o'quvchilarni estetik, go'zallikka o'rgatish o'qituvchilardan judayam katta mahoratni talab etadi. Buning uchun o'qituvchi avvalombor yuksak pedagogik mahorat egasi, badiiy-estetik ma'lumotli, madaniyatli bo'lmog'i zarur.

Endigina bilimlar koni - maktab olamiga kirib kelgan bolalarni shu muhitga moslashtirish, birinchi darsdanoq ular uchun notanish bo'lgan partalarda to'g'ri, o'quv talablariga mos tarzda o'tirishga o'rgatish, uning yaxshi tomonlarini sodda tarzda va misollar asosida tushuntirib berish, bola ilk bor ruchkani qo'lga olganda uni to'g'ri ushlashga o'rgatish, daftarning qanday holda turishini tushuntirish va ularning xatti-harakatini sinchkovlik bilan kuzatib borib, to'g'ri yo'lga solib borish - bularning barchasi o'quvchi shaxsining ilk bor maktabga kelib shu hayotga singish jarayonidagi estetik tarbiyasining birinchi va boshlanish sabog'idir.

O'qituvchi bolaga ilk estetik tarbiya haqida tushuncha hosil qila olsa, o'quvchilar shunga amal qilsa bu eng katta yutuqdir. Buning uchun avvalo o'qituvchining o'zi estetik haqidagi tushinchalarga ega bo'lishi, o'quvchilarga yaxshi xulqi, xushmuomalaligi, yurish-turishi, kiyinishi va o'quvchilarga bo'lgan do'stona munosabatlari orqali ibrat na'munasi bo'la olishi, bir so'z bilan aytganda pedagogik mahoratga ega bo'lishi kerak. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarga estetik tarbiyasini berib borishdan ko'zlangan maqsad bolani kichik yoshdan boshlab go'zallik, chiroylilik, ozodalik kabi xislatlarga o'rgatib borish, yovuzlik, xunuklik illatlardan nafratlanishga, bunday illatlardan yiroqda turishga o'rgatishdir. Chunki, estetik tarbiya bola tug'ilgandan boshlab, umrining oxirigacha unga yo'ldoshdir.

Musiqiy-estetik kompetensiya haqida turli olimlar turlicha fikrlar bildirgan. Bu kompetensiya shaxsning musiqani anglash, baholash, ijro etish va undan estetik zavq olish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Quyida ayrim olimlarning fikrlari bilan tanishamiz:

B.V.Asafyev – Musiqani anglash jarayoni hissiy tajriba bilan bog'liq bo'lib, u insonning estetik didini shakllantirishga xizmat qiladi. Asafyevning fikriga ko'ra, musiqa nafaqat san'at turi, balki insonning madaniy dunyoqarashini boyituvchi vosita hamdir.

D.B.Kabalevskiy bolalar va o'smirlarning musiqiy tarbiyasiga alohida e'tibor qaratib, musiqiy-estetik kompetensiyaning rivojlanishini ularning musiqiy tajribasi va ijodkorligiga bog'liq deb hisoblaydi. Uning ta'kidlashicha, musiqa inson qalbini tarbiyalaydi va uning estetik didini shakllantiradi.

Sharq olimlari musiqiy-estetik kompetensiyaning inson ma'naviy kamoloti, ruhiy yuksalishi va axloqiy tarbiyasining muhim qismi deb hisoblagan. Ularning fikrlarida musiqa inson ruhiyatiga ta'sir etuvchi kuch sifatida tasvirlangan. Quyida ayrim mashhur Sharq mutafakkirlarining bu boradagi fikrlari bilan tanishamiz:

Abu Nasr Forobiy musiqa nazariyasiga oid "Musiqqa haqida katta kitob" (Kitāb al-Mūsīqī al-Kabīr) asarida musiqani falsafa va axloq bilan bog'lab o'rganadi. Unga ko'ra, musiqa inson ruhiy holatini muvozanatga keltirishga yordam beradi, estetik did va musiqiy bilimlarni shakllantirishda musiqaning tarbiyaviy ahamiyati katta, musiqa inson ma'naviyatini yuksaltiradi va uni axloqiy jihatdan mukammallashtirishga xizmat qiladi.

Jaloliddin Rumi tasavvuf musiqasi va uning ruhiy poklanishga ta'siri haqida yozgan. Unga ko'ra, musiqa inson qalbini yorituvchi va uni Yaratganga yaqinlashtiruvchi san'at turidir, musiqaning ichki dunyoni boyitish va ruhiy zavq bag'ishlash xususiyati bor, ma'naviy yuksalish yo'lida musiqa inson ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Alisher Navoiy musiqiy madaniyatga katta e'tibor bergan va uni inson axloqini shakllantirish vositasi sifatida ta'riflagan. Uning fikriga ko'ra, musiqa va adabiyot bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, insonning estetik dunyoqarashini rivojlantiradi, musiqa go'zallik va ma'naviy yuksalishning ifodasi bo'lib, inson qalbini poklaydi, mumtoz musiqiy meros inson tafakkurini teranlashtiradi va his-tuyg'ularini boyitadi.

Ibn Sino musiqani tibbiyot va inson psixologiyasi bilan bog'lab o'rgangan. Uning fikricha, musiqa inson salomatligiga ijobiy ta'sir qiladi va ruhiy terapiya sifatida foydalidir, to'g'ri tanlangan musiqiy ohanglar insonning kayfiyatini yaxshilaydi va ruhiyatiga ta'sir qiladi, musiqiy bilim insonning umumiy madaniy saviyasini oshirishga yordam beradi.

Sharq olimlari musiqiy-estetik kompetensiyani faqat san'at sohasi emas, balki inson axloqiy va ma'naviy kamolotining muhim qismi sifatida ko'rishgan. Ularning ta'riflarida musiqa nafaqat zavqlanish vositasi, balki inson qalbini yuksaltiruvchi, ruhiyatini poklovchi va jamiyatda yaxlitlikni ta'minlovchi kuch sifatida e'tirof etilgan.

Shunday ekan, boshlang'ich sinf o'quvchilariga beriladigan estetik tarbiyasi poydevor sifatida mukammal, ongiga singdirilgan darajada bo'lishi kerak. Xalqimizda «Yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqshdir» degan ibora bejizga ishlatilmaydi. Bolaning boshlang'ich sinflarda olgan bilimi, tarbiyasi toshga o'yilgan naqshdek qolar ekan, ularga mana shu davrda berilgan estetik tarbiyasi, ularni to'g'ri yo'lga soluvchi vositalar ham keyinchalik oladigan bilimlariga, tarbiyalariga asos bo'lib xizmat qiladi.

Estetik tarbiyasining asosiy maqsadi bir nechta vazifalarni o'z ichiga oladi. «Estetik tarbiya inson ongiga, his-tuyg'ulariga, tasavvuriga, e'tiqodiga, dunyoqarashiga, xatti-harakatlariga, xulq-atvoriga ta'sir o'tkazishni o'z oldiga maqsad va vazifa qilib qo'yadi».

Boshlang'ich sinflarda kichik yoshdagi bolalar ongiga ta'sir ko'rsatishda go'zallik, xunuklik, chiroylilik, fojialik, kulgulik, yoqimlilik kabi tushunchalarni singdirib borishimiz juda ham ahamiyatli ekan. Bunda badiiy asarlardan foydalanish, kuy va qo'shiqlar eshittirish, tasviriy san'at asarlarini ko'rsatish yaxshi natija beradi. His-tuyg'uga ta'sir ko'rsatish - bolada estetikaga nisbatan his-tuyg'uni idrok etish qobiliyatlarini shakllantiradi. Tasavvurga ta'sir – boshlang'ich sinf o'quvchilarida ilk tasavvurlarni shakllantirish uchun ularga ertak o'qib berish, ijobiy qahramonlarni, salbiy qahramonlarni og'zaki tasvirlashni shakllantirib boradi. Dunyoqarashga ta'sir – turli xil musiqalarni tinglash va turli qo'shiqlarni kuylab, raqsga tushish orqali kichik yoshdagi bolaning dunyoqarashini estetik jihatdan shakllantirib boradi.

Musiqiy-didaktik imkoniyatlar – bu musiqa san'atining ta'lim-tarbiyaviy jarayondagi o'rni va ahamiyatini ifodalovchi pedagogik, psixologik va metodik imkoniyatlar majmuidir. Musiqa nafaqat badiiy zavq bag'ishlaydi, balki o'quvchilar tafakkurini rivojlantirish, axloqiy tarbiya berish, milliy va umumjahon madaniyatini singdirish kabi muhim funksiyalarni bajaradi.

Musiqiy-didaktik imkoniyatlarning asosiy yo'nalishlarini ko'rib chiqamiz:

Emotsional-estetik tarbiya, musiqa insonning his-tuyg'ulariga bevosita ta'sir qilib, ularning estetik didini shakllantiradi, O'quvchilarga go'zallikni anglash va musiqaning badiiy qimmatini tushunish imkonini beradi. Inson ruhiyatiga ijobiy ta'sir qilib, uni ezgulikka, muhabbatga, mehr-oqibatga yo'naltiradi.

Bilim va tafakkurni rivojlantirish kompetensiyalariga ko'ra, musiqa orqali tarix, adabiyot, san'at va boshqa fanlar bilan bog'liq ma'lumotlar berish mumkin. O'quvchilarda tanqidiy fikrlash, musiqiy analiz qilish va badiiy idrokni rivojlantirishga xizmat qiladi. Musiqiy asarlarning tuzilishi, ritmi va ohangini tahlil qilish orqali mantiqiy tafakkur o'sadi.

Til va nutqni rivojlantirish qobiliyatlari bo'yicha, musiqa o'quvchilarning talaffuzini yaxshilashga, tovushlar bilan ishlashga yordam beradi. Qo'shiqlar orqali yangi so'zlar o'rganish va ularning mazmunini tushunish osonlashadi. Musiqiy ifoda orqali hissiyotlarni nutq orqali yetkazish qobiliyati rivojlanadi.

Madaniy va milliy qadriyatlarni singdirish bo'yicha, milliy musiqiy merosni o'rganish orqali yosh avlod o'z xalqining tarixi va madaniyatiga hurmat bilan qarashni o'rganadi, turli xalqlarning musiqiy madaniyati bilan tanishish orqali dunyoqarashi

kengayadi, musiqa orqali an'anaviy urf-odatlar, marosimlar va tarixiy voqealar bilan bog'liq bilimlar beriladi.

Ijodiy va ijrochilik qobiliyatini shakllantirish bo'yicha, o'quvchilar musiqiy asarlar ijro etish jarayonida ijodiy tafakkurni rivojlantiradilar, musiqiy improvizatsiya, bastakorlik va ansambl bilan ishlash qobiliyatlari rivojlanadi, o'quvchilar o'z hissiyotlarini musiqa orqali ifodalashni o'rganadilar.

Ijtimoiy va kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish bo'yicha, jamoaviy qo'shiq kuylash va orkestr hamda ansambllarda ishtirok etish orqali o'quvchilarda hamkorlik ko'nikmalari shakllanadi, musiqa orqali o'quvchilar o'z his-tuyg'ularini ifodalashni va boshqalar bilan muloqot qilishni o'rganadilar, musiqa orqali ijtimoiy muloqot madaniyati shakllanadi.

Psixologik va fiziologik ta'sir etish bo'yicha, musiqa o'quvchilarning stressni kamaytirish, diqqatni jamlash va kayfiyatini yaxshilashga yordam beradi, turli yoshdagi bolalar uchun maxsus tanlangan musiqiy asarlar ularning psixologik rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiladi, musiqa orqali harakat koordinatsiyasi, ritm tuyg'usi va motorika rivojlanadi.

Musiqiy-didaktik imkoniyatlar o'quvchilarning nafaqat musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish, balki ularning umumiy bilimi, ijtimoiy muloqoti, nutqi va axloqiy tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatish imkonini beradi. Musiqa nafaqat o'rgatiladigan fan, balki insonning butun hayotini boyituvchi muhim omildir.

Yuqoridagi kompetensiyalardan kelib chiqib musiqiy-estetik kompetensiyaga mualliflik ta'rifimizni quyidagicha belgiladik:

Bolalarni estetik ongini, idrokini, mulohazaliligini, ehtiyojini, didini, tuyg'usini hamda musiqiy-estetik tarbiyasini shanllantirish orqali turmushidagi go'zallikni idrok qilishni o'rgatish, ularning badiiy didini o'stirish, go'zallikka muhabbat uyg'otish va hayotga go'zallik olib kirish qobiliyatlarini tarbiyalashdagi imkoniyatlardir.

Dissertatsiyaning **«Boshlang'ich sinf o'quvchilarida musiqiy-estetik kompetenlikni rivojlantirish metodlari»** deb nomlangan ikkinchi bobida musiqiy estetik kompetenlikni rivojlantirishga zamonaviy yondashuvlar, boshlang'ich sinf o'quvchilarida musiqiy-estetik kompetenlikni rivojlantirish modeli, musiqiy estetik kompetenlikni rivojlantirish metodikasi berilgan.

Umumta'lim o'rta maktab o'quvchilarida musiqiy-estetik kompetensiyalarni rivojlantirishda musiqiy tushunchalarni mazmunan-hissiy integratsiya qilish bilan birga kasbiy kompetensiyalarni o'z-o'zini baholay olish kabi ta'lim berish tamoyillarining tadrijiy dinamikligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarning musiqiy-estetik kompetensiyalarni rivojlantirishda ta'lim berish tamoyillarining tadrijiy dinamikligida sekin-asta, darajama daraja sodir bo'ladigan, evolutsion davomiylilik nazarda tutilgan.

Zamonaviy pedagogik texnologiyada pedagogik prognostik usullaridan foydalanishda ta'lim jarayonini tashhis qilish va yaratilgan nazariyalar, o'quv-metodik majmualar tajriba-sinov asosida amaliyotga joriy qilishning metodologik asoslari, aniq mexanizmlari, usullarini ishlab chiqish va qo'llash ko'zda tutiladi. O'quvchilarda musiqiy-estetik kompetensiyalarini rivojlantirishda emotsional, obrazli ifodaviy-ritmik gimnastik mashqlardan foydalanish ketma-ketligini belgilashda ularning xususiyatlari va vazifalariga tayanildi. Emotsional bu ma'lum bir xarakterdagi kuy yoki musiqani his qilish orqali uni ritmini topish yoki ritmik mashq bajarishdir. Obrazli ifodaviy

deganda dars jarayonida o'quvchiga aynan bir obraz beriladi va o'quvchi shu obrazni ifodalovchi ritmik mashq bajarishi kerak.

O'quvchilarda musiqiy-estetik kompetensiyalarini rivojlantirishda o'zbek raqslari, ularning mintaqaviy o'ziga xosliklarini va harakatning umumiy maqsadi kontekstida shaxsning idividuallashishini ifodalovchi erkin harakat shakllari asosidagi raqs madaniyati yo'nalishini o'rganish asosida, harakat shakllarini tashkil etish masalasi qo'yiladi. Tadqiqotda o'zbek folklori merosining tarixiy shakllangan janrlariga, kompozitorlar musiqasiga va mamlakatimiz taniqli o'qituvchilarining pedagogik amaliyotida qo'llaniladigan amaliy mashqlarga tayaniladi.

Xalq musiqiy ijodi o'z mohiyati bilan monotipdir. U xalq hayoti va maishiy turmushining aksi bo'lib, mavzularning serqirraligi va janrlar xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Xalq musiqasida, uning bajaradigan vazifalaridan kelib chiqqan holda, boshqa xalqlarda bo'lgani kabi, qo'shiq va cholg'u resalarining guruhlarini: ma'lum vaqtlarda, biror narsaga atab ijro etiladigan; u yoki bu sharoitga bog'liq bo'lmagan holda, istalgan vaqtda ijro etiladigan guruhlarini ajratib ko'rsatish mumkin.

O'zbekistonda musiqa asboblari boy va xilma-xil. Torli-kamonchali asboblardan orasida g'ijjak, sato, qo'biz, setor; chertib chalinadigan torlilardan do'mbira, dutor, tanbur, ud, afg'on (yoki Buxoro) va koshg'ar ruboblari; torli-zarbli asboblardan chang; tilchali puflab chalinadigan sibizg'a, bulaman (balaban), surnay, qo'shnay; fleytali chalinadigan nay, gajir nay; misli puflab chalinadigan – karnay; zarbli – doira, nog'ora, safoyl, qoshiq va boshqalar bor.

